XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA BADIIY ASARLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Mustafoqulova Hulkar Axmedovna, Jizzax politexnika instituti O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti
e-mail: hulkarmustafo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘qitishda badiiy asarlardan foydalanishning afzalliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Badiiy asarlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, madaniy bilimlarini oshirish va qiziqishni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada badiiy matnlar yordamida til o‘rgatishning asosiy usullari va ularning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xorijiy tillarni o‘qitish, badiiy asarlar, til ko‘nikmalari, madaniy bilimlar, ta’lim usullari;

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация. Статья посвящена изучению преимуществ использования художественных произведений при обучении иностранным языкам. Художественные тексты играют важную роль в углублении языковых навыков учащихся, повышении их культурной осведомленности и мотивации. В статье анализируются основные методы преподавания с использованием художественных материалов и их положительное влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, художественные произведения, языковые навыки, культурная осведомленность, методы обучения;

ADVANTAGES OF USING LITERARY WORKS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Abstract. This article explores the benefits of using literary works in foreign language teaching. Literary texts play a significant role in deepening students' language skills, enhancing their cultural awareness, and increasing motivation. The article analyzes key teaching methods involving literary materials and their positive impact on the learning process.

Keywords: foreign language teaching, literary works, language skills, cultural awareness, teaching methods;

Kirish. Xorijiy tillarni o‘qitishda badiiy asarlardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Badiiy asarlar tilni o‘rganishda nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki madaniy bilimlarni oshirish, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishga ham yordam beradi. Badiiy matnlar talabalarga tilning real foydalanish shakllarini o‘rgatadi va ular orqali o‘quvchilar turli xil leksik va grammatik konstruktsiyalarni o‘rganishadi. Shu bilan birga, badiiy asarlar tilning ijtimoiy-madaniy kontekstini o‘rgatadi, chunki badiiy asarlarda turli ijtimoiy guruhlar va madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi til o‘rinlaridan foydalaniladi [3, 80-86 b.].

Badiiy asarlarning motivatsion jihatlari ham juda muhim. Badiiy asarlar talabalarning hissiy va intellektual javoblarini uyg‘otadi, bu esa ularning o‘qish va tilni o‘rganish istagini kuchaytiradi. Har xil janrlar (poeziya, drama, romanlar va boshqalar) talabalarni turli xil til muammolariga duchor qiladi va shu orqali turli til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [10, 53-66 b.].

Bundan tashqari, badiiy asarlar talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirishda yordam beradi. Badiiy asarlar ko‘pincha bir nechta ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi, bu esa talabalarga matnni turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqish va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Shu tarzda badiiy asarlar tilni o‘rganish jarayonida nafaqat lingvistik, balki shaxsiy va madaniy rivojlanishga ham hissa qo‘shadi [11].

Shuningdek, o‘qish uchun badiiy asarlarni tanlashda talabalarning til darajasi va qiziqishlari hisobga olinishi kerak. Talabaning madaniy tajribalariga mos bo‘lgan asarlarni tanlash, ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi [12]. Shuning uchun badiiy asarlarni xorijiy til o‘qitishda qo‘llash, tilni o‘rgatishda kuchli vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy tillarni o‘qitishda badiiy asarlardan foydalanishning ahamiyati ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Kolli va Sleter (1990) badiiy asarlarning til o‘rganish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilishgan [6]. Ularning fikricha, badiiy asarlar talabalarga tilni chuqurroq o‘rganish, madaniy kontekstlarni tushunish va turli til xilma-xilliklarini o‘zlashtirishda yordam beradi. Ayniqsa, badiiy asarlar talabalarga tilning barcha ko‘rinishlarini ko‘rsatib beradi, shu bilan birga, tilni o‘rganishda madaniy bilimlarni oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, badiiy asarlar talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Tizimli tarzda matnlarni tahlil qilish, matnning turli nuqtai nazarlardan qaralishi va ularning shaxsiy fikrlarini ifoda etishi talabalarni faol ishtirok etishga undaydi [5].

Yana bir muhim jihat – badiiy asarlardan foydalanish o‘quvchilarda tilga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Kramsch (1993) badiiy asarlarning o‘quvchilarni jalb qilish va ularning o‘rganishdagi ishtirokini kuchaytirishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Badiiy asarlarning jozibadorligi, ularda keltirilgan hissiy, intellektual reaktsiyalar talabalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sifatli yondashuvni qo‘llaydi va badiiy asarlarning xorijiy til o‘qitish jarayonidagi ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar ishlatiladi:

1. Tanlov. Tadqiqot o‘rta darajadagi xorijiy til o‘rganuvchilariga qaratilgan bo‘lib, 18-30 yoshdagi ingliz, fransuz va ispan tillarini o‘rganayotgan talabalar tanlanadi. Ma’lumotlar universitet o‘quv kurslaridan to‘plangan bo‘lib, badiiy asarlar o‘quv dasturiga asosiy tarkib sifatida kiritilgan.

2. Ma’lumotlarni yig‘ish. Tadqiqotda quyidagi ma’lumotlar yig‘iladi:

Darslarni kuzatish. O‘qituvchilar badiiy asarlarni darslarga qanday kiritishlarini va talabalar bu matnlarga qanday javob berayotganini kuzatish.

Intervyular. O‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazilib, badiiy asarlarni o‘qitishda duch kelinadigan afzalliklar va muammolar haqida fikrlar olinadi.

So‘rovnomalar. Talabalarga badiiy asarlar orqali olingan til ko‘nikmalari, madaniy bilimlar va motivatsiya darajasi haqida so‘rovnoma tarqatiladi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. Yig‘ilgan ma’lumotlar mavzuga oid tematik tahlil orqali o‘rganiladi. Badiiy asarlarning til o‘rganish jarayoniga ta’siri, talabalarning qiziqishi va madaniy bilimlaridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqot badiiy asarlarning til o‘rganishdagi o‘rni, talabalarning til ko‘nikmalariga, madaniy bilimlariga va motivatsiyasiga ta’sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Chet tilini o‘qitishda lug‘at eng muhim sohalardan birini ifodalaydi; shuning uchun lug‘atni o‘rgatish uchun katta vaqt va ijodkorlik sarflash muhimdir. Hozirgi ta'lim tizimi o‘qituvchilarga lug‘atni taqdim etish uchun keng imkoniyatlarni taklif etadi. O‘qitish tajribasiga asoslanib shuni aytish mumkinki, yangi lug‘atni taqdim etishning turli xil va ijodiy usullari mavjud bo‘lsa-da, eng keng tarqalgan usul bu “3 ustunli lug‘at”. 3 ustunli lug‘at o‘quvchilarga xorijiy so‘zni kontekstsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tiliga tarjima qilishni taklif qiladi. Yangi so‘zlarni kontekstsiz o‘rganish ko‘pincha o‘quvchilarning yangi so‘zlarni hayotiy vaziyatda ishlata olmasligiga olib keladi.

Hikoyalar esa kontekstni taklif qiladi; bundan tashqari, ular o‘quvchilarning qiziqishini va ularning ichki motivatsiyasini uyg‘otadi, bu umuman o‘rganishda juda muhimdir. Hikoyalar butun atrof dunyoyimizni o‘rab olishgan: ular kitoblarda, rasmlarda, televizorda, tushimizda, hamma-hamma joyda.

Bolalarning ertak tinglashi, kitob o‘qishi, rasmli kitoblarga bog‘liq hikoyalar o‘ylab topishi tabiiy. Hikoyalar nafaqat so‘z boyligini, balki fantaziyani ham rivojlantiradi va bu hikoyalarning afzallliklarini payqash va undan foydalanish ko‘p samara berishi mumkinligini o‘rganib chiqishimiz lozim. Darsda hikoyalardan foydalanishning ko‘plab afzalliklari bor, ulardan biri o‘quvchilarning ish tartibini o‘zgartirishi va o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otishi, ularning faol ishtirokini rag‘batlantirishdir.

Ba’zi o‘qituvchilar til yondashuvining madaniy yondashuv elementlari bilan kombinatsiyalangan o‘qitish usulidan foydalanishni afzal ko‘radilar.

Til yondashuvidan foydalangan holda chet tilini o‘rgatish quyidagi faoliyat shakllarini o‘z ichiga oladi: (masalan, matn bilan ishlash)

- matnni ko‘rib chiqish,
- o‘qilgan materialni muhokama qilish,
- matndagi bo‘shliqlarni to‘ldirish,
- bir nechta tanlov savollari (multiple choice),

- hikoya qanday tugashi haqida taxminlar qilish,
- matnning oxirini yozish,
- matn uchun eng mos sarlavhani tanlashga harakat qilish,
- harakatli o‘yinlar, sahnaviy chiqishlar (Role plays)

Til yondashuvidagi bunday vazifalar o‘quvchilarning o‘rganishdagi ehtiyojlarini qondiradi va o‘rganilayotgan tilda badiiy adabiyot o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun motivatsiya beradi.

Tilshunos olimlar fikriga ko‘ra, til o‘rganish jarayonida adabiy asarlardan parchalar, o‘quvchilar nafaqat chet tili bo‘yicha bilimlarini yaxshilash, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va matnni talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Albatta, badiiy asarning asosiy elementlari madaniy yondashuvning bir shakli sifatida o‘quvchilarni o‘z va boshqa madaniyatlarning xususiyatlari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.

Matn – yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning parchasi.

Badiiy matn – nasriy va nazmiy asarlar.

Badiiy matn uni boshqa matnlardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi, chunki u dunyoqarashning xususiyatlari va hissiyotlarni uyg‘otishga qodir.

Chet tilini o‘rgatish uchun adabiy matnlar bilan ishlashda o‘qituvchi leksik va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda matnlarni tanlash muammosiga duch keladi. Bundan tashqari, matnlarni tanlash bilan bog‘liq savollar ham shu jumladandir:

- darsda foydalanish uchun adabiy matnlarni qanday tanlash kerak?
- manday mezonlar sizning tanlovingizga mos bo‘lishi kerak?
- matnlarni tanlashda qanday omillarni hisobga olish kerak?
- talabalar matnni o‘qib chiqqandan keyin ularda qanday qobiliyatlar rivojlanadi?

Har bir o‘qituvchi o‘qish uchun o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini uyg‘otadigan mavjud bilim va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda hamda chet tili madaniyatini har tomonlama aks ettiradigan manbalarni topish oson emasligini tasdiqlashi mumkin. O‘qituvchi dastlab tilshunoslik darajasini, ya’ni matnning qulayligi, ya'ni o‘quvchilarning o‘qish jarayonida lingvistik qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyatini tahlil qilishi kerak.

Matn tanlanayotganda muallif tomonidan badiiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida qo‘llaniladigan leksik va grammatik me’yorlar, matnni tashkil etuvchi lingvistik va mintaqaviy ma’lumotlar bilan to‘ldirilganligini hisobga olish lozim. Masalan, klassik adabiyotdan matnni o‘qiyotganda, unda mavjud haddan tashqari ko‘p miqdordagi arxaizmlar va murakkab stilistik konstruktsiyalar asarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish uyg‘otishga qaratilgan ta’sirini kamaytiradi.

Boshqacha aytganda, chet tilidagi asl adabiyotni tanlashda uning o‘quvchi uchun ochiqligi, ya’ni yaratilish vaqti va yozuvchi tanlagan janrni e'tiborga olish kerak.

Shaxsan, XX-XI asr ijodkorlari asarlarini chet tilini o‘rganish jarayonida, ular xronologik jihatdan bizning davrimizga yaqinroq bo‘lganligi sababli, o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi va ularni muhokamalarda qatnashishga va tasvirlanganlarga o‘z munosabatini bildirishga undaydi, - deb hisoblayman hamda ulardan foydalanishni tavsiya qilaman. Matn tanlashda, avvalambor, o‘quvchilarning sinfi, chet tilini bilish

darajasi, o‘qish qobiliyatini hisobga olish lozim. Bu jarayonda o‘z-o‘zidan asarlar ham sintaksisi, lug‘at tarkibi, grammatikasiga ko‘ra ajratilib olinishi maqsadga muvofiq.

Matnlarni tanlashni cheklovchi muhim omil ijtimoiy-madaniy tafovutlardir. Chunki o‘quvchiga mutlaqo noma'lum, yangi olam ularda tushunish nuqtai nazaridan syujet va matnni sharhlashda haqiqiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. O‘qish uchun o‘quvchilarga aniq matnlarni berish emas, balki o‘quvchilarga matnni mustaqil tanlash imkoniyatini taqdim etish muhimdir. O‘qituvchi o‘zi tanlagan matnga o‘quvchilarni qiziqtirish uchun uni taklif etilayotgan matndan bir qismi yoki xulosasini o‘quvchilarga oldindan o‘qib berishi mumkin va ular matnni o‘qishni davom ettirish kerakmi yoki yo‘qmi, o‘zlari qaror qabul qiladilar. Bu jarayonda o‘quvchilarda dastlabki so‘rovnomada ishtirok etish hissini uyg‘otish uchun oddiy savollar jamlanmasini asosiy yordamchi qilish mumkin:

“ - Badiiy adabiyotni o‘qishga qanday munosabatdasiz?

- Siz tez-tez kitob o‘qiysizmi?

- Sevimli janringiz qaysi?

- Sizning sevimli kitobingiz nima?” va hokazo.

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘qish uchun kitoblar ro‘yxatini ham taklif qilishi mumkin. Bunday sharoitda matn tanlash jarayonida o‘quvchining o‘zi ham ishtirok etadi va o‘qituvchi tanlangan matn juda murakkab emasligiga va o‘quvchining lingvistik darajasiga mos kelishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Birinchi o‘qishda o‘quvchi matnni bir butun, sarlavhalar, alohida paragraflar sifatida tushunishi va “Kim?”, “Nima?”, “Qayerda?”, “Qachon?”, “Nima uchun?” kabi savollarga javob bera olishi kerak.

Xorijiy tillarni o‘rganish darslarida haqiqiy badiiy adabiyotdan foydalanish, xususan, ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarning tizimga samarali integratsiyalashuviga yordam beradi, jumladan, kasbiy yo‘naltirilgan tillarni o‘qitish va butunlikni shakllantirish hamda o‘quvchilarning til ko‘nikmalari majmuasi uchun ajralmas manbadir. Bu ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi:

a) san’at asarining janrga ega bo‘lishi;

b) o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yaqin mazmunni tushinib borishlari;

c) o‘quvchining matnda ko‘tarilgan masalalarga hissiy ishtiroki tufayli psixik holatining rivojlanib borishi;

d) lingvistik va madaniy og‘ishlarning ahamiyatsiz darajasi;

Til (asl manba tilidagi) butun matnni o‘qish istagini keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, agar adabiy asar muammolari o‘quvchi qiziqishlariga yaqin bo‘lsa. Bu esa hissiylikni ta’minlaydi.

o‘qib chiqilgan asar ustida munozara qilish o‘quvchida fikrni ochiq ifoda qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Hikoyalar, xatti-harakatlar namunalari va axloqiy haqiqatlarni tushunish va eslash, oson yo‘llar bilan yetkazish mumkin bo‘lgan vosita ekanligini tan ta’kidlashimiz lozim; bundan tashqari, hikoya qilishning asosiy ma'lumot manbai bo‘lib qolishi sababi XV asrda matbaa ixtirosi bo‘lgan. Biz hikoyada tush ko‘ramiz, eslaymiz, oldindan ko‘ramiz, umid qilamiz, umidsizlikka tushamiz, ishonamiz, shubhalanamiz, rejalashtiramiz, qayta ko‘rib chiqamiz, tanqid qilamiz, tuzamiz,

g‘iybat qilamiz, o‘rganamiz, nafratlanamiz va hikoya orqali sevamiz, qisqacha aytganda, asar qahramoni sifatida o‘zimizni tasavvur qilamiz.

Hikoya qilish - tinglovchilarga o‘z tushunchalarini boshqa bolalar bilan baham ko‘rish va shu tariqa tranzaktsiyalar qilish imkonini beradigan lingvistik, shuningdek, ta’lim faoliyati bo‘lgan texnikasi sifatida ta’riflanadi. Hikoyalarga asoslangan ushbu interaktiv tajriba muhim ahamiyatga ega, chunki u odamlarga o‘z g‘oyalari va bilimlarini baham ko‘rish imkonini beradi.

Hikoya qilishning asosiy maqsadi hikoya orqali hikoyani baham ko‘rishdir. Olimlarning fikricha, hikoyaning asosiy elementlari qahramonlar, syujet va hikoyaning asosiy g‘oyasi. Tomoshabinlarsiz hikoya qilish mumkin emas, ta'lim muhitida bu auditoriya o‘quvchilar tomonidan ifodalanadi.

Hikoya o‘qish usuli - bu so‘zlarda qo‘llaniladigan manbalarni o‘qish yoki hikoyani ovoz chiqarib o‘qish yoki ovoz chiqarib o‘qish, xotiradan bir parcha o‘qish yoki dramani sahnalashtirish orqali ma'lumot olish usuli.

Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birgalikda hikoyalar kitobi tajribasi bolalar uchun turli sohalarda katta bilimga ega bo‘lib xizmat qiladi va pedagoglar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin-ki, ingliz tili darslarida o‘rganish uchun biror badiiy parcha – hikoya, ertak, roman, novella, qissa kabilardan foydalanish o‘quvchilarda ham ona tilida, ham chet tilida o‘qish ko‘nikmasining rivojlanishiga, o‘quvchi psixikida yangi dunyoqarash, yangi madaniyat borasida tushuncha hosil bo‘lishiga, mavzu yanada qiziqarli, amaliy bog‘langan holatda tushuntirilishiga har tomonlama hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2012. – B. 44

2. Azizxodjayeva A. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. – B. 164.

3. Babaee R., & Wan Yahya W. R. Significance of literature in foreign language teaching. International Education Studies. 7(4), 2014. – B. 80-86. https://doi.org/10.5539/ies.v7n4p80

4. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent, 2008. – B. 284.

5. Carter R., & McRae J. Language literature and the learner: Creative classroom practice. Routledge. 1996.

6. Collie J., & Slater S. Literature in the language classroom: A resource book of ideas and activities. Cambridge University Press. 1990.

7. Djo‘rayev R. X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – B. 87.

8. Erkayev E. T. Bo‘lajak chet til muallimi ta’limida qo‘llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. – Toshkent, 2008;

9. Hismanog‘lu, M. Teaching English through literature. Journal of Language and Linguistic Studies, 1(1). 2005. – B. 53-66.

10. Kramsch C. Context and culture in language teaching. Oxford University Press. 1993.